

---

## Farg'ona shahar hokimligining bildirishi

Farg'ona shahar A.Yassaviy ko'chasi yashovchi fuqaro B.Abdiraimovning uy-joy masalasidagi murojaati bo'yicha Farg'ona shahar hokimligining xo'jalik hisobidagi uy-joy bo'limi quyidagilarni ma'lum qiladi. Aniqlanishicha, fuqaro B.Abduraimovning 2017 yildagi uy-joy ajratish to'g'risidagi murojaatiga binoan Farg'ona shahar hokimligi tomonidan Farg'ona shahar hokimining 2017 yil 13 noyabrdagi qaroriga asosan o'z roziligiga ko'ra, Farg'ona shahar A.Yassaviy ko'chasi 14A-uyning 3-qavatida joylashgan, yangi ta'mirlangan va jihozlangan (1 xonali) xonadon xususiylashtirish huquqsiz, beminnat biriktirib berilgan. Fuqaro B.Abdiraimov 1-guruh nogironligi sababli, Farg'ona shahar hokimligi tomonidan 3-qavatdan ajratib berilgan xonadonni A.Qodiriy ko'chasidagi uylardagi xonadonga almashtirib berish haqida murojaat qilgan. Hokimlik uy-joy bo'limi fuqaro B.Abduraimovning manfaatlarini ko'zlagan holda ish joyiga yaqin va 1-qavatda joylashgan Farg'ona shahar A.Qodiriy ko'chasi 70-uyning 18-xonadoni (1 xonali)ga almashtirib berishni taklif etgan. Biroq fuqaro B.Abdiraimov mazkur taklifni rad etib, Farg'ona shahar hokimligi tomonidan biriktirib berilgan hozirgi yashab turgan xonadonini xususiylashtirib berishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993 yil 7 maydagi "Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 847-XII-son qarori 1-bo'limining 11-moddasida "Mehnatga layoqatsiz, yolg'iz qariyalar, pensionerlar va ularning jon boshiga oladigan oylik daromadi eng kam ish haqidan oz bo'lsa, shuningdek birinchi marta nikohdan o'tgan turar joyga muhtoj yosh oilalarga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan ro'yxatga binoan fuqarolarning ijtimoiy ximoyalanmagan va ta'minoti oz boshqa toifalariga mahalliy davlat hokimiyat organlari huzurida aniq maqsadga qaratilgan ijara shartnomasi talablari asosida xususiylashtirish huquqsiz kommunal uy-joy fondi tashkil etiladi" deb ko'rsatilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, fuqaro B.Abdiraimovga Farg'ona shahar hokimligi tomonidan berilgan taklifga asosan xonadonini almashtirishi yoki amaldagi qonunlarga asosan hozirgi ajratilgan xonadonida yashab kelishi mumkinligini ma'lum qilamiz.

2020-03-12 18:01:11